



## ILK O'RТА ASRLAR XORAZM TARIXIGA OID MAHALLIY MANBALAR TAHLILI

Boltaboyeva Shahrizoda,  
Urganch davlat universiteti,  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti,  
Tarix yo'nalishi magistranti,  
[shahrizodaboltaboyeva@gmail.com](mailto:shahrizodaboltaboyeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda Xorazm tarixiga oid Tuproqqal'a saroy hujjatlari hamda xonodon hujjatlaridagi ijtimoiy munosabatlarning aks etishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** "Ming qal'a o'lkasi" , S. P. Tolstov, inventar, B. V. Xen, Tuproqqal'a, "Qora tanli jangchilar zali"

## ANALYSIS OF LOCAL SOURCES ON THE HISTORY OF KHORAZM IN THE EARLY MIDDLE AGES

Boltaboyeva Shahrizoda,  
Urganch state university,  
Socio-economic sciences faculty,  
Department of history,  
Master`s degree student,  
[shahrizodaboltaboyeva@gmail.com](mailto:shahrizodaboltaboyeva@gmail.com)

**Annotation:** This article deals with the reflection of social relations in Tuproqkala palace documents and khonadon documents related to the history of Khorezm in the early Middle Ages.

**Key words:** "The land of a thousand castles", S. P. Tolstov, inventor, B. V. Hen, Tuproqkala, "Hall of black warriors"



## АНАЛИЗ МЕСТНЫХ ИСТОЧНИКОВ ПО ИСТОРИИ ХОРАЗМА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

*Балтабаева Шахризода,*

*Ургенчский государственный университет,*

*Факультет социально-экономических наук,*

*Направление истории,*

*Магистрант,*

*shahrizodaboltaboyeva@gmail.com*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается отражение общественных отношений в дворцовых документах Тупроккалы и документах хонадона, связанных с историей Хорезма в раннем средневековье.

**Ключевые слова:** «Страна тысячи замков», С. П. Толстов, изобретатель, Б. В. Хен, Тупроккала, «Зал черных воинов»

Qizilqum cho'lining cheksiz qumlari orasida ko'plab sir va sirlarga to'la Xorazm vohasi yoyilgan. Arablar istilosini davri manbalarida Xorazm "Ming qal'a o'lkasi" deb atalgan. Bu hududda arxeologlar bir vaqtlar qudratli qal'alar va qiroollok saroylari bo'lgan ko'plab qadimiy aholi punktlarini topganlar. Suvsiz dashtlarning bepoyon kengliklarida yuzlab qal'alar qad ko'tarib, ulkan butlar singari Qadimgi Xorazm sirlarini saqlaydi. Xorazm arxeologiya va etnologiya ilmiy safari xodimlarining 1937-yildan boshlab, Xorazmda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari Xorazmning ko'p qirrali tarixini ochib berdi. Xorazm qal'alarini o'rganish jarayonida ular tarixiga oid ko'plab sirlar ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, tarix fani afsona va rivoyatlarni inkor qilmaydi, balki ular zaminida yashirinib yotgan haqiqatlarini aniqlash uchun arxeologiya, etnografiya, fanlaridan samarali foydalanadi. 12 ming qal'a qo'rg'onli Xorazm vohasiga doir afsona va



rivoyatlar ko'plab uchraydi. Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha, "Xorazm madaniyati qadimgi madaniyatlardan bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi 1292-yildan boshlanadi. Alloma o'lka tarixini bayon etar ekan, "Uning taqdiri Jayhun fe'l-atvoriga bog'liq edi", deb ko'rsatgan[1]. Qal'a Xorazm podsholarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. U shimoldan janubga cho'zilgan to'rtburchak shaklida qurilgan va o'lchamlari 500x350 metr. Devorlarning balandligi 14 metrga yetgan. Inshoot kamonchilar uchun galereyalari bo'lgan, to'g'ri devorlardan, qanotlari bo'ylab, teng oraliqda joylashgan to'g'ri burchakli minoralardan va shimoli-sharqiy burchakdagi kattaroq minoradan iborat. Devorlarning ichida ikki qavatli mudofaa galereyalari bor. Pastki galereya askarlarning yashirin harakati va dam olishi uchun xizmat qilgan, yuqori qismi esa jangovar edi. Qo'shimcha to'siq sifatida shaharni har tomonidan o'rabi turgan va devorlardan 15 metr masofada joylashgan qal'a devorlari oldida xandaq qurilgan[5]. Uning kengligi 16 metr va chuqurligi 3 metr edi. Qal'aga yagona kirish eshigi janubiy devorning o'rtasida qurilgan. Kengligi taxminan 9 metr bo'lgan markaziy ko'cha shaharning butun uzun o'qi bo'ylab o'tgan, yon ko'chalar va yo'laklar esa asosiy ko'chaning ikki tomonida turar-joy massivlarini tashkil qilgan. Ularning ba'zilari ustaxonalar va ishlab chiqarish maydonlari sifatida ishlatilgan. Bir joy ma'bud majmuasi uchun ajratilgan bo'lib, bino ichidagi va uning atrofidagi kul miqdoriga ko'ra, bu olov ma'budi bo'lgan.

Saroyning ko'p xonalari devor rasmlari va loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Ulkan markaz oldidagi zal-280 kv. metr maydonga ega "Qirollar zali" o'zining bezaklari bilan alohida ajralib turardi. Yorqin bo'yalgan devorlar bo'ylab Xorazm hukmdorlarining har biri tabiiy o'lchamidan ikki baravar katta bo'lgan 23 ta loydan yasalgan haykalchalar turgan. Afsuski, bu haykallar faqat parcha-parcha holda saqlanib qolgan. Bu haykallarning aynan podshohlar timsoli ekanligi tangalardagi tasvirlardan ma'lum bo'lgan ikkita haykaltarosh toj topilmalaridan dalolat beradi[2].



"Qora tanli jangchilar zali"ning bezaklari ham qiziqarli va boy. Taxminan 60 kvadrat metrlik bu keng xona ham loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Joylashtirish va tartibga solish saroy uchun odatiy turar-joy binolarining tartibi va tartibini butunlay takrorladi. Devorlar bo'yidagi bo'shliqlarda shohlarning loydan yasalgan yirik haykallari va ular orasidagi bo'shliqlarda maxsus stendlarda qo'llarida qurol-yarog' bilan jangchilarning siymolari bor edi. Saroyning yana bir old xonasi arxeologlar tomonidan "Raqs maskalari zali" deb nomlangan. Ushbu zalning bezaklari nafaqat qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan qadimgi yunon sharob va o'yinkulgi xudosi Dionisga sig'inishga bag'ishlangan. Zal devorlarini bezab turgan barelyeflarda Bakx raqslari tasvirlangan. Kichikroq xonalar ehtimol turar-joy - ko'p rangli devor rasmlari bilan bezatilgan[4].

Tuproqqal'ada shoh saroyida joylashgan markaziy massivning janubi-sharqiy tomonidagi pastgi qavatning 4 ta xonasida xorazm hujjatlari topilgan. Bu hujjatlar Afrig‘iy Xorazmshohlar davriga oid bo‘lib, charm va yog‘ochga-taxtacha va tayoqqa yozilgan. Ularning umumiyligi soni 140 ta bo‘lib, shulardan 122 tasi charmga, qolganlari yog‘och taxtacha va cho‘plarga yozilgan. Yozuvlar tush (qorasiyoh) bilan oromiy xat asosida shakllangan ilk xorazm kursiv usulida yozilgan[3].

Mazkur arxiv hujjatlarini tahlil qilish jarayonida yog‘ochga yozilgan hujjatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga katta oilalar tarkibiga kirgan ozod va qu'l erkaklar (VDn) ro‘yxati kiradi. Bu hujjatlar “uylar ro‘yhati” nomi bilan yuritiladi. Bunday to‘liq ro‘yhatlar 5 ta bo‘lib, shartli ravishda I-V- hujjatlar va bular Tuproqqal'a hujjatlari orasida butun holatda saqlanib qolgan yagona hujjatlardir. Bundan tashqari uy ro‘yxatlarining 10 ta bo‘lagi ham topilgan va shartli VI-XV-hujjatlarni tashkil qiladi.Ikkinchisi guruhga yog‘ochga yozilgan xo‘jalik hujjatlari kiradi. Bu guruh 4 dona (XI-XIX hujjatlar) siniq yog‘och bo‘laklaridan iborat. Bu hujjatlar g‘ildirak (XVI, XVII hujjatlar), chorva (XVIII hujjatlar) va boshqa narsalarni kirish va chiqim ro‘yhatlaridan iborat.Uchinchi guruhdan 7 ta



tayoqchadagi hujjatlar o‘rin olib, ular yupqa cheklardan iborat. Hujjatlar P-1, P-7 raqamlari bilan belgilangan. “P” belgisi ruscha “palochka” so‘zining bosh harfidan olingan. Birinchi guruhga kirgan “uylar ro‘yhati” hujjatlarini birinchilardan bo‘lib, S.P.Tolstov o‘qigan hamda I va II hujjatlar fotonusxalarini va matnlarning transliteratsiyalarini e’lon qilgan. Keyinchalik B.V.Xenning bir nechta ismlarining o‘qilishini aniqlashtirgan.

Beshta to‘liq saqlanib qolgan “uylar ro‘yhati” dan to‘rttasida katta oilalar, ularning tarkibiga kirgan erkaklar hamda uy qullari sanab o‘tilgan. X raqamli uy hujjatining birinchi qatorida oila boshlig‘i ya’ni uy egasining ismi yozilgan. I, II va III hujjatlarning har birida uy egasining ikkitadan balog‘atga yetgan, ammo uylanmagan yoki oiladan ajralib chiqmagan o‘g‘illarining ismlari keltiriladi. III hujjatda uy egasi o‘g‘illarining ismlari yozilmagan. Bu esa o‘g‘illar oiladan ajralib chiqqanligini yoki hali voyaga yetmaganligini anglatishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aholini ro‘yhatga olish davrida oiladan ajralib chiqqan va ro‘yxatga olish yoshiga yetmagan o‘g‘illarning ismlari “uylar ro‘yhati” ga kiritilmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, III hujjatda uy egasining ismidan so‘ng kuyovning ismi yozilgan. I hujjatda esa o‘g‘illarning ismlaridan so‘ng kuyovning ismi yozilgan. Faqat bita kuyovning ismi yozilishi uzatilgan qiz otasining uyida qolishi mumkinligidan dalolat beradi. Aslida udumga ko‘ra turmushga chiqqan qiz kuyovning uyiga o‘tib yashagan. Xujjatlarda ismlardan so‘ng abzats belgisi turibdi. Undan so‘ng “VDn” sarlavhasi qullar ro‘yxatini boshlab beradi. Bu qullar uy egasi, katta o‘g‘illari va kuyoviga tegishli qullar ro‘yhatidir. I, II va IV hujjatlarda uy egasi xotinining qullari va nevaralarining qullari (bu o‘rinda qizlarning bolalari bo‘lishi mumkin) ham ko‘rsatilgan.

Uylar ro‘yhatidagi qullar ismlari etimologiyasi ko‘proq xorazmcha bo‘lib, uylarning ozod a’zolari ismlaridan farq qilmaydi. Hujjatlarning birortasida xorazmlik bo‘limgan qullarning ismi uchramaydi. Demak, qullar xorazmlik bo‘lib,



ular patriarchal oilalarga qaram bo‘lib, uy egasiga itoat qilgan. Qullar ozod kishilardan farqlangan. Bu esa III asrda Xorazmda qulchilik patriarchal xarakterda bo‘lganligidan dalolat beradi. Uy ro‘yhatlari armiya va ko‘ngilli qo‘shinlarni kuch bilan ta’minlash maqsadida katta yoshli erkaklarni ro‘yhatga olish asosida tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu kichkina tayoqlarni bir yoki har ikkala tomonida nozik o‘yma naqshlar ishlangan. Bu narsa ular yorliq bo‘lishi mumkinligi haqida taxminni beradi. Tayoqchalardagi yozuvlar rangi ancha o‘chib ketgan va tayoqdagagi yozuv bir so‘zdan iborat bo‘lib, bu haqiqiy ismlar bo‘lishi kerak[6].

Demak, Tuproqqal'a arxiv hujjatlari Xorazm davlatining ijtimoiy xo‘jalik tizimi, mahalliy boshqaruvin tizimi, kishilarning ismlari, o‘lchov birliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tuproqqal'a arxivi Xorazmda davlat mahkamachilik an'anasi qadimiyatdan boshlab, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o‘tganligini ko‘rsatadi.

**Xulosa** qilib aytganda Xorazm vohasi o‘zining muhtasham tarixiy qal'lari, boy qadimiy madaniy inshootlari bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Xorazmning ko‘p sonli inshootlaridan hozirda eng yaxshi holatda yarmi o‘rganilgan. Xorazm tarixi hali to‘liq ochilmagan, u sirlar, taxminlar, rivoyatlar, osori-atiqalar, rivoyat va e’tiqodlar bilan qoplangan. Bularning barchasi bu hududga alohida qiziqish uyg’otadi. Ular ochiq osmon ostidagi tirik muzey, qiziquvchan tadqiqotchini o‘ziga tortadigan ertak. Bu qal'alarda ko‘plab sir va sinoatlar yashiringan. Xalqimizning qadimiy va navqiron tarixini bir-biriga tutashtirib turuvchi ko‘hna qal'alar diyor obidalari har qancha ardoqlansa, kelajak avlodimizga yetkazish uchun avaylab saqlansa, ko‘pgina qurilish namunalari, devor me'morchilik san'at asralari, sopol mahsulotlari dunyo madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olib turadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Beruniy Abu Rayhon, Qadimgi halokatlardan qolgan yodgorliklar. -T.: 1968. B. 231.
- [2]. Xodjaniyazov G.X., Yagodin V.N., Xelms S.U, Maklaren B.K. Raskopki na Akshaxankale // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2000 g. Samarkand, 2001.-C. 175
- [3]. Qilichev T. Ko'hna qal'lar diyori. T.: O'qituvchi, 1993.- B. 34-36.
- [4]. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khorezm>
- [5]. Толстов С. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. Т.: Янги аср авлоди, 2014. - Б. 205-207.
- [6]. Жабборов И. Кўхна харобалар сири. Тошкент: Узбекистон ССР давлат нашриёти, 1961.-Б. 69-70.